

# «QUBLA ARAL BOYI ARXEOLOGIYASI, ETNOGRAFIYASI, DEREKTANIWI, TARIYXNAMASI HÁM TARIYXINIŃ AKTUAL MÁSELELERI» ATAMASINDA XALIQ ARALIQ ILIMY-TEORIYALIQ KONFERENCIYA MATERIYALLARI

## QORAQALPOG`ISTON HUDUDIDA KUTUBXONALARNING SHAKLLANISH TARIXI

**Reymbaev Rustem Sarsenbaevich**

*Nukus davlat pedagogika instituti  
“Tarix o`qitish metodikasi” kafedrasi  
katta o`qituvchisi*

Qoraqalpog`iston hududida kutubxonalarning shakllanishi uzoq tarixga ega bo`lib, Markaziy Osiyodagi xuddi shunday muassasalar tarixi bilan chambarchas bog`liq. Qoraqalpog`iston hududidagi ilk kutubxonalar asosan, xususi bo`lib, an`anaviy maktab va madrasalar qoshida faoliyat yuritgan. Qoraqalpog`iston hududida kutubxonalarning keng tarqalishi aholi orasida savodxonlik darajasining yuqori bo`lganidan dalolat beradi. t.f.d. M.Qarliboev fikricha, hududdagi masjid va madrasalarda katta-kichik kutubxonalar shakllangan. Vamberiga xamrohlik qilgan Ishoq mullaning shu erda Vamberi harid qilgan va aravaga ortilgan “dasta kitoblar” xaqidagi ma`lumotidan kelib chiqib, 1840-yillarda Qo`ng`irotda kitob bozori allaqachon shakllangan bo`lishi mumkin, aks holda Vamberining bunchalik miqdordagi kitoblarni (200 tacha) ommaviy ravishda sotib olishini boshqa yo`l bilan izohlab bo`lmaydi deb yozadi[1].

Chor Rossiyasining mustamlakachilik siyosati davrigacha ham ta`lim muassasalari qoshida kutubxonalar, keyinchalik shaxsiy kutubxonalar shakllana boshlagan. O`lka Chor Rossiyasi tomonidan bosib olingandan so`ng Rossiya ma`muriyati o`z siyosatini, jumladan, maorif sohasida ham o`z siyosatini olib borishga harakat qildi. 1874-yil Petro-Aleksandrovska birinchi rus maktabi ochildi, to`rt yildan so`ng uning negizida Petro-Aleksandrovska shahar maktabi ochildi. Maktab uchun yangi bino qurilishi boshlandi, Keyinchalik o`quv qurollari ombori va ombor bazasida birinchi marta kutubxona va kitob muqovalash bo`yicha hunarmandchilik darslari tashkil etildi[2]. Ko`p o`tmay maktab Petro-Aleksandrovska shahar uchilimesiga aylantirilib, uning qoshida kutubxona mavjud bo`lib, bu haqda pedagogika fanlari doktori J.Urumboev o`z tadqiqotida shunday yozadi: “1890-yilda xonning o`zi (Muhammad Rahimxon II. – R.R.) Petro-Aleksandrovska shahar uchilimesiga borgan. U maktab, internat, kutubxona, ustaxonalar, etikdo`zlik va muqovalash bo`yicha o`quvchilarning ayrim ishlarini ko`zdan kechirdi»[3].

Rasmiy ma`lumotlarga ko`ra, 1904-yilga kelib Amudaryo bo`limida shahar uch sinfli erkaklar maktabi, diniy maktab, 2 ta rus-tuzem maktabi, bitta madrasa, 1602 ta ovul va qishloq maktablari mavjud edi[4]. Binobarin, o`sha davrda Qoraqalpog`iston hududida

# «QUBLA ARAL BOYI ARXEOLOGIYASI, ETNOGRAFIYASI, DEREKTANIWI, TARIYXNAMASI HÁM TARIYXINIŃ AKTUAL MÁSELELERI» ATAMASINDA XALIQ ARA LIQ ILIMY-TEORIYALI Q KONFERENCIYA MATERIYALLARI

kamida ikkita ommaviy kutubxona – maktab va madrasada, shuningdek har bir maktab va masjidlarda kichik kutubxonalar bo`lgan. Birqancha manbalarda XX asr boshlarida Qoraqalpog`iston hududida 3000 ga yaqin madrasa va maktablar bo`lganligi (1909) qayd etiladi[5].

Tadqiqotchi-olim A.Qudiyarovning ta`kidlashicha «Rus vedomosti» gazetasining 1875-yilgi 4-sonida «Chimboy shahar maktablarining biriga kirganingizda bosma kitoblarning ko`pligi hayron qoldiradi. Ularni O`rta Osiyoning boshqa shaharlarida uchratish qiyin» deb yozgan[6]. Bu esa Qoraqalpog`iston hududida sovet hokimiyati o`rnatilgunga qadar ham madrasa va xususiy uylarda yirik kutubxonalar mavjud bo`lganligidan dalolat beradi. Afsuski, kutubxonachilik sohasining mana shu davri, ayrim istisnolarni hisobga olmaganda, hali ham kam o`rganilgan. Tadqiqotchi-olim A.Qudiyarov va M.Rametullaevlar Qoraqalpog`iston hududida sovet tuzumidan oldingi davrda kutubxonalar bo`lganligini, xususan, mashhur ma`rifatparvar, shoir va o`qituvchi Qozi Maulikning (1887-1950) katta kutubxonasi bo`lganligini va hattoki Chimboyda kitob do`koni ochilganini ta`kidlaydilar[7].

Materiallarning dastlabki tahlili shuni ko`rsatadiki, Qoraqalpog`iston hududidagi ilk ommaviy kutubxona XIX asrning 90-yillarida tashkillashtirilgan To`rtko`l shahar (sobiq Petro-Aleksandr) kutubxonasi bilan bog`liq. Uning dastlabki kitob fondi shahar fuqarolarning shaxsiy kutubxonalaridan taqdim etilgan ixtiyoriy xayriyalaridir. Ushbu kutubxona 1907-yil 7-martda Petro-Aleksandrovsk shahri ommaviy kutubxonasi rasmiy maqomini oldi. 1912-yilda kutubxona fondida 3300 nomdagi adabiyotlar va jurnallar ro`yxatga olingan.

Sovet hukumatining kutubxonachilikni tashkil etishdagi birinchi va muhim harakatlari kitob boyliklarini davlat tasarrufiga o`tkazish va rekvizitsiya qilish edi. Bol`sheviklar bu masala bo`yicha muhim qarorlar qabul qildi, jumladan, «RSFSR kutubxonalar va kitob saqlash joylarini muhofaza qilish to`g`risida» (1918), «Ilmiy kutubxonalar to`g`risida»gi qaror (1919), «Kitoblar va boshqa bosma mahsulotlar zaxiralarini milliy lashtirish to`g`risida»gi (1920) farmonlar shular jumlasidandir. Kutubxonalarni davlat tasarrufiga o`tkazish va kitoblarni rekvizitsiya qilish mavjud kitob jamg`armasidan ommaviy foydalanishni ta`minlashning ma`muriy-direktiv yo`l bilan hal qilishga urinishning o`ziga xos turi edi. Shu yillarda Turkiston Muxtor Sovet Sotsialistik Respublikasida qabul qilingan bir qator davlat hujjatlarida madaniyat muassasalarining keng tashkil etilgan tarmog`i, jumladan, kutubxonalar va o`quv xonalari, shuningdek, ishchilar va dehqonlar o`rtasida siyosiy-ma`rifiy ishlarni rivojlantirish, aholi o`rtasida

# «QUBLA ARAL BOYI ARXEOLOGIYASI, ETNOGRAFIYASI, DEREKTANIWI, TARIYXNAMASI HÁM TARIYXINIŃ AKTUAL MÁSELELERI» ATAMASINDA XALIQ ARA LIQ ILIMY-TEORIYALIQ KONFERENCIYA MATERIYALLARI

savodxonlikni targ`ib qilishga har tomonlama yordam ko`rsatishning amaliy yo`llari belgilab berildi.

Amaliy maqsadlarni amalga oshirish uchun sovet partiya organlarining qattiq nazorati ostida tashviqot va targ`ibot markazlarini yaratish muhim edi. 1919-yil oxirida madaniy-ma`rifiy ishlar bo`limlari tashkil etildi, ular ma`rifat, tashviqot va targ`ibotni tashkil etish bilan bog`liq barcha ishlarni nazorat qilishlari kerak edi. Partiyaning viloyat va viloyat qo`mitalari huzurida madaniy-ma`rifiy bo`limlar tashkil etilib, ularga kutubxonalar tuzish va ularni to`ldirish, klublar, o`quv zallarini tashkil etish va hokazolarga rahbarlik qilish yuklatildi. Ta`kidlanganidek, okrug va mahalliy partiya qo`mitalari huzuridagi madaniy-ma`rifiy komissiyalar tashkilot yoki qo`mita tomonidan belgilangan tarkibda tuzilgan. Ularga, agar iloji bo`lsa, barcha marksistik adabiyotlar, inqilob tarixiga oid risolalar va tabiiy tarix va boshqalar bo`yicha yangi nashr etilgan umumiy ilmiy kitoblar, ma`ruzalar va boshqalarni o`z ichiga olgan kutubxonalar tashkil etish topshirildi[8].

Yuqorida ta`kidlaganimizdek, Amudaryo viloyatida asosan, ziyoli kishilarga qarashli shaxsiy kutubxonalar mavjud edi. Shuningdek, Petro-Aleksandrovskda shahar kutubxonasi, bir qancha shaxsiy kutubxonalar mavjud edi. Ularni davlat tassarufiga o`tkazish va ularni boshqarish ishini takomillashtirish maqsadida Xalq kutubxonasi kengashi tuzildi. 1919-yil 14-aprelda Turkiston Respublikasi Xalq Komissarlari Soveti "Turkiston Respublikasi kutubxonalarini milliyashtirish to`g`risida"gi farmoyishi qabul qilindi, 1919-yil 9-mayda esa Amudaryo deputatlar Soveti qoshidagi Xalq xo`jaligi boshqarmasi shahar kutubxonasini, Nozikovning shaxsiy kutubxonasini davlat tassarufiga o`tkazish bo`yicha qaror qildi. Maxsus komissiya tarkibiga Milliy kutubxona kengashining ikki a`zosi - erylomin va A.Bogoradov kiritildi, ularga kitoblarni rekvizitsiya qilish mandati berildi[9].

Ushbu sa`y-harakatlar natijasida Petro-Aleksandrovsk xalq kutubxonasi tashkil topdi. Kutubxona ishiga A.Jelyabin boshchiligidagi saylangan Kengash rahbarlik qilgan, kutubxonaga esa A.Bogoradov rahbarlik qilgan. Kitob fondi kitoblar bilan to`ldirila boshlandi va 1920-yillarning o`rtalariga kelib, u 7000 nusxani tashkil etdi[10].

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Карлыбаев М.А. К истории ислама у каракалпаков: исторические, социальные, этнические и генеалогические контексты. – Нукус, 2021. – 133-134-бб.
2. Урумбаев Ж. Революциядан бурынғы Қарақалпақ территориясындағы билимлендириў ислериниң ҳәм мектеплердиң қысқаша тарийхы хаққында – Нөкис, 1964. – 25-б.
3. Урумбаев Ж. Очерки истории школ Каракалпакстана. – Нукус, 1974. – 59-б.

# «QUBLA ARAL BOYI ARXEOLOGIIYASI, ETNOGRAFIYASI, DEREKTANIWI, TARIYXNAMASI HAM TARIYXINIŃ AKTUAL MASELELARI» ATAMASINDA XALIQ ARALIQ ILMU-TEORIYALIQ KONFERENCIYA MATERIYALLARI

4. Обзор Сырдарьинской области за 1904 год. – Ташкент, 1906. – 246-247-бб.
5. Вертегов В.И. Культурная революция в ККАССР // Труды первой конференции по производительным силам Каракалпакской АССР. - Ленинград:., 1934. Т.2. – 161-б.
6. Кудияров А. Маъмун академиясы ҳам руўхый мийрасымыз // Хорезм Маъмун академиясының 1000-жыллығына бағышланған Республикалық илмий әнжуман материаллари. – Нөкис, 2006. – 23-б.
7. Кудияров А., Раматуллаев М. Университет китапханасы тарийхынан. – Нөкис, 2016. – 11-б.
8. Резолюции и постановления съездов Коммунистической партии Туркестана. 1918-1924 гг. – Ташкент, 1958. – 40-б.
9. QR MDA, P-10-f., 1-ruyh., 8-ish, 12-b.
- 10.Қарақалпақстан АССРы тарийхы. II-том. – Нөкис, 1977. –263-б.